


«TASDIQLAYMAN»

«Science and Research» MCHJ

ta'asischisi M.J.Bekiyeva

M. Bekiyeva

20- aprel 2022-yil



«Journal of Integrated Education and Research»
elektron jurnal tahririyatining
NIZOMI

Andijon- 2022 yil

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur nizom «**Journal of Integrated Education and Research**» elektron jurnal tahririyatining (bundan buyon matnda «tahririyat» deb yuritiladi) huquqiy va ijtimoiy-siyosiy asoslarini belgilaydi.

1.2. Elektron jurnal o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ommaviy axborotlar to'g'risidagi», «Noshirlik faoliyati to'g'risidagi», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi», «Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to'g'risidagi», «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risidagi», «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonunlar, va boshqa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarorlari xamda mazkur nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

1.3. Ommaviy axborot vositasi muassisi: «Science and Research» MCHJ (bundan buyon matnda «muassis» deb yuritiladi) hisoblanadi.

1.4. Ommaviy axborot vositasi turi: «Journal of Integrated Education and Research» elektron jurnal, o'zbek, rus va ingliz tili.

1.5. Ommaviy axborot vositasi nomi: «Journal of Integrated Education and Research» (o'zbekcha nomi: Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqot jurnali, ruscha nomi: Журнал интегрированного образования и исследований).

1.6. Ommaviy axborot vositasi tili: o'zbek, rus va ingliz.

1.7. Ommaviy axborot vositasi maqsad va vazifalari:

- ilmiy xodimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy unvonlarga davogarlar va talabalarning ilmiy-tadqiqot, ilmiy–amaliy hamda eksperimental faoliyati natijalarini nashr etish;
- ilmiy tadqiqot amaliyotining eng maqbul yo'nalishlarini shakllantirish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr etish;
- mahalliy va xorijiy ilm-fan yutuqlarini, ilg'or ilmiy tadqiqot texnologiyalari hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan materiallarni nashr etish;
- ilmiy nashrlarni aks ettirishda oshkoralik, shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash;
- pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, adabiyot, tibbiyot, arxitektura, matematika, fizika, mexanika, biologiya, ximiya, geografiya, axborot texnologiyalari, huquqshunoslik, iqtisodiyot, tarix, falsafa, qishloq xo'jaligi, islomshunoslik, texnika, jismoniy tarbiya sohasida ilmiy ishlarni xalqaro bazalarda integratsiya qilish.

Shuningdek, tahririyat mehnat qonunchiligiga muvofiq yozma shartnoma asosida ishga olingan, jamoatchi, shartnoma asosida ishlovchi taqrizchilar, jamoatchi ekspertlar, turli soha mutahassislari ko'magiga tayanadi, belgilangan tartibda arxiv hujjatlari hamda internet tarmog'idan ham foydalaniladi.

1.8. Ommaviy axborot vositasining ixtisoslashuvi: ilmiy tadqiqot, pedagogika sohasi.

1.9. Ommaviy axborot vositasining davriyligi: har oyda, veb-sayt orqali yangi ilmiy maqolalar nashr etish.

1.10. Elektron jurnalning joylashgan joyi (pochta manzili): Andijon viloyati, Xo'jaobod tumani, Qorabuloq MFY, Maorif ko'chasi 48 uy. Telefon:+998914955893. Faks yo'q. Elektron pochta: malikaxonjamoldinovna@gmail.com

1.11. Tarqatish hududi: O'zbekiston Respublikasi va dunyo bo'ylab.

1.12. Ommaviy axborot vositasi hajmi: kelib tushgan maqolalar sonidan kelib chiqib belgilanadi. (Talab va takliflarga qarab hajmi belgilangan tartibda o'zgarishi mumkin).

1.13. Ommaviy axborot vositasining tashkiliy-huquqiy shakli: <http://www.rmasav.com> elektron jurnali “Science and Research” MCHJ ning tarkibiy bo‘linmasidir va u alohida yuridik shaxs hisoblanmaydi.

2. MUASSISNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Muassasis quyidagi huquqlarga ega:

- ommaviy axborot vositasining ro‘yxatda qayd etilgan nomidan foydalanish va uni tasarruf etish;
- tahririyat boshqaruv organlarini shakllantirishda ta‘sis shartnomasi, tahririyat nizomi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etish;
- foydani taqsimlashda va zararlarni qoplashda ishtirok etish;
- eng katta hajmi va chiqariladigan muddati tahririyat nizomiga yoki muassis va tahririyat o‘rtasidagi shartnomaga muvofiq belgilanadigan, reklama to‘g‘risida bo‘lmagan xabar yoki materiallarni o‘z nomidan ommaviy axborot vositasida bepul joylashtirish;
- tahririyat nizomiga faoliyat davomida qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish;
- tahririyatning ish rejasi, shtatlar jadvali, harakatlar sxemasi hamda boshqa tashkiliy-huquqiy tuzilmasiga oid hujjatlarni tasdiqlash;
- tahririyat bosh muharririni tayinlash, mexnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq u bilan mexnat shartnomasini tuzish;
- tahririyat xodimlarini ishlab chiqarish va ijtimoiy-maishiy mexnat sharoitlarini tashkil etish tartibini belgilash;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda elektron jurnalda berilgan eng dolzarb materiallarini kitob holda chop etish va sotish ishlarini tashkillashtirish;
- mehnat intizomini buzgan va qonuniy talablarni bajarmagan xodimga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi amaldagi mehnat qonunchiligi talablaridan kelib chiqib, jazo va choralar qo‘llash;
- tahririyat faoliyatini vaqtinchalik to‘xtatib turish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- qonun hujjatlarida xamda ushbu nizomda nazarda tutilgan vakolatlar doirasida tahririyat faoliyatini boshqarish;

2.2. Muassis tahririyatning faoliyati tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilingandan keyin qolgan mol-mulkni yoki uni qiymatini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda olish huquqiga ega;

2.3. Muassis qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlariga xam ega bo‘lishi mumkin.

2.4. MUASSISning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- tahririyatni ish jarayonini tashkil etish;
- tahririyat nizomini tasdiqlash;
- tahririyat bilan shartnoma tuzish;
- ommaviy axborot vositasini doimiy ishlashini ta‘minlash;
- ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash;
- tahririyat xodimlari bilan mehnat shartnomasini tuzish;
- nizom fondi o‘zgarganligi haqida, agar nizom fondida chet el investitsiyasi qonunda nazarda tutilgan chegaradan ortib ketgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan vakolatli organni (ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organni) xabardor qilishi shart;
- tahririyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

- tahririyat jamoasidagi mehnatga oid munosabatlarni qonun hujjatlari, ushbu nizom, jamoa shartnomasi talablari asosida, ichki mehnat tartibi qoidalari lavozim yo'riqnomalari hamda tahririyat qabul qilgan boshqa normativ hujjatlarga muvofiq tartibga solishi;
- tahririyat xodimlariga zaruriy ish sharoitlarini yaratish;
- hodimlarga belgilangan tartibda oylik maosh berish, moddiy yordam, mehnat ta'tillari mablag'lari bilan bog'liq hujjatlarni to'lab berish;
- tahririyat jurnalistlarini turli tadbir va anjumanlarda ishtirokini ta'minlash.

2.5. Muassisga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa majburiyatlar ham belgilanishi mumkin.

3. TAHRIRIYATNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. TAHRIRIYAT o'z kasb faoliyatida mustaqildir.

3.2. TAHRIRIYAT quyidagi huquqlarga ega.

- tahririyatning yillik ish rejasi, harajatlar smetasi va boshqa faoliyatini rivojlantirishiga doir takliflar ishlab chiqish;
- kelib tushgan maqolalarni to'plash va veb saytga joylashtirish;
- tahririyat ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab elektron jurnalni chiqarish bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshirish;
- jurnalni O'zbekiston Respublikasi hududida nashr etish;
- ijodiy faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish;
- oliy ta'lim muassasalari, jamoat birlashmalari, korxonalar va tashkilotlarda ilmiy tadqiqot faoliyati olib borayotgan hodimlardan ilmiy maqolalar qabul qilish;
- tahririyat boshqaruv organlarini shakllantirishda veb-sayt nizomi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etish.
- ommaviy axborot vositasi sifati, saviyasi, miqdori bo'yicha takliflar, biznes rejalar ishlab chiqish va uni amalga oshirish.
- Respublika va xalqaro konferensiyalar tashkil etish.

Shuningdek, tahririyat qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.3. TAHRIRIYAT majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- ma'lumot to'plash, materiallarni ko'rib chiqish va nashrga tayyorlash, nashr etilgan maqolalarning ishonchligini tekshirish, joriy va istiqboldagi nashr rejalarini ishlab chiqish;
- sifatli ilmiy va ommabop maqolalarni nashr etishi ta'minlash;
- uchinchi shaxslarning barcha xuquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish, shuningdek foydalanilayotgan asarlarga, shu jumladan mualliflik xuquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonuni hujjatlariga rioya qilish;
- ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunning 35-moddasida ko'zda tutilgan rasmiy xabarlar va axborotni nashr etishni ta'minlash;
- nashrlarni o'z vaqtida va samarali chiqarilishini ta'minlash;
- o'z ixtiyoriga berilgan mol-mulk, asbob-uskuna va boshqa moddiy boyliklarni saqlanishi xamda extiyotkorlik bilan ishlatishini ta'minlash;
- o'z faoliyatini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligining ommaviy axborotvositalariga qo'yiladigan barcha talablarini to'g'ri bajarish.

3.4. Tahririyat zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

4. TAHRIRIYAT FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

- 4.1. Tahririyat mol-mulkini tasarruf etish muassis tomonidan amalga oshiriladi.
- 4.2. Tahririyat mol-mulki muassisga tegishli bo'lgan mol-mulkdan tarkib topadi. Ularning qiymati muassis balansiga qayd etib qo'yiladi.
- 4.3. Muassis elektron jurnal bilan bog'liq doimiy xarajatlarni o'z zimmasiga oladi. Shuningdek, tahririyatni bino xamda zarur texnik anjomlar, jixozlar bilan ta'minlaydi. Kelgusida elektron jurnal faoliyatida reklama tijorat va axborot xizmatlarini keng yo'lga qo'yish, xomiylik yordamlari xamda tahririyat nizomida belgilangan boshqa xizmat turlari orqali topiladigan mablag'lar xam moliyaviy manba xisoblanadi.
- 4.4. Tahririyat axborot, reklama, dizayn va boshqa belgilangan tartibda vakolatli organdan tegishli ruxsatnoma olganidan keyin matbaa xizmatlari ko'rsatish orqali orqali xam ijtimoiy xolatini yaxshilashi mumkin.
- 4.5. Amaldagi mexnat qonunchiligiga asosan mexnatga xaq to'lash tizimini va miqdorini, mukofotlar, qo'shimcha xamda ustama xaqlarining barcha turlarini belgilashda, xar bir xodimning ish xaqini uning umumiy ishga qo'shayotgan xissasiga qarab belgilashda va mexnatga xaq to'lashning yuqori darajasi biror-bir tarzda chegaralanmaydi.
- 4.6. Tahririyat xodimlarining mexnatga xaq to'lash tartibi va miqdori bosh muxarrir tomonidan belgilanadi va muassis tomonidan tasdiqlanadi. Xodimlar ish haqining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asoslanadi.
- 4.7. Tahririyat veb-sayt xizmatlari narxini bozor talabidan kelib chiqib mustaqil baholaydi, boshqa xizmatlarning haqini belgilaydi.

5. TAHRIRIYATNING BOSHQARUV ORGANLARINI SHAKLLANTIRISH TARTIBI

- 5.1. Bosh muharrir muassis tomonidan lovozimga tayinlanadi va vazifasidan ozod etiladi.
- 5.2. Bosh muharrir tahririyatga raxbarlik qiladi, ommaviy axborot vositasi chiqarilishi to'g'risida qaror qabul qiladi va uning faoliyati uchun qonun xujjatlariga muvofiq javob beradi.
- 5.3. Qonun xujjatlari va ta'sis xujjatlariga muvofiq, ommaviy axborot vositasining muassisi, tarqatuvchisi, davlat xokimiyati va boshqaruv organlari xamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda shuningdek sudda tahririyat nomidan ish yuritadi. Bundan tashqari bosh muxarrir:
 - tahririyat ish rejasi, shtatlar jadvali, xarajatlar smetasi xamda boshqa tashkiliy-xuquqiy tuzilmasiga oid xujjatlarni ishlab chiqadi;
 - tahririyat xodimlarinig mexnatga xaq to'lash shakli, tizimi, miqdori shuningdek qalam xaqqi miqdorini qonun hujjatlariga muvofiq belgilashda ishtirok etadi;
 - tahririyatda ijro intizomi mexnat intizomi bo'yicha tadbirlar belgilaydi va ularga rioya etilishini tashkil etadi, choralar ko'radi;
 - tahririyatda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va tahririyatda belgilangan mexnat tartib-qoidalari xamda texnika xavfsizlik qoidalari rioya etgan xolda ish tashkil etadi;
 - tahririyat xodimlarining turli konferensiya va anjumanlar, tanlovlarda ishtirokini ta'minlaydi;

- 5.4. Bosh muharrir o'z xarakati yoki (xarakatsizligi) yuzasidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi;
- 5.5. Bosh muharrir vaqtincha yo'qligi davrida uning vazifasini ma'sul xodimlardan biriga yuklanadi va muassis tomonidan belgilanadi;
- 5.6. Bosh muharrir muxarrirga qonun xujjatlarida belgilangan tartibda boshqa vazifalar yuklatilishi mumkin.

6. FOYDALARNI TAQSIMLASH VA ZARARLARNING O'RNINI QOPLASH TARTIBI

- 6.1. Tahririyatdan orttirilgan foyda muassis ixtiyorida bo'lib, tahririyatning faoliyatini yanada kengaytirishga, tahririyatni rivojlantirishga va uning moddiy-texnik taminotini yanada yaxshilashga, shuningdek xodimlarning mexnatini munosib rag'batlantirishga taqsimlaydi va maqsadli fodalanadi.
- 6.2. Agar tahririyat zarar ko'radigan bo'lsa, muassis zararni qoplash chora -tadbirlarini ko'radi.
- 6.3. Muassis O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasi 5-xat boshisida belgilangan tartibda ya'ni tahririyatning faoliyati tugatiladigan taqdirda, kreditorlar bilan xisob-kitob kilingandan keyin qolgan mol-mulkni yoki uning qiymatini qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda olish xuquqiga ega.

7. OMMAVIY AXBOROT VOSITASINING CHIQRILISHINI TO'XTATIB TURISH YOKI TUGATISH TARTIBI

- 7.1. Mazkur ommaviy axborot vositasining chiqarilishini to'xtatib turish yoki tugatish O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni va soxaga oid boshqa amaldagi qonunosti xujjatlari asosida, shuningdek muassis qarori yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi organning arizasi asosida sudning qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.
- 7.2. Veb-sayt ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonun xujjatlariga muntazam rioya etmay kelgan taqdirda vakolatli organ ommaviy axborot vositasini tutatish (uning faoliyatini tugatish) xaqida sudga murojaat etishga xaqli.
- 7.3. Muassis ommaviy axborot vositasining chiqarilishini tahririyat Nizomida nazarda tugatilgan xollarda xamda tartibda to'xtatib turish yoki tugatishga xaqlidir.
- 7.4. Muassis ommaviy axborot vositasining chiqarilishini to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilgandan keyin o'z qarori xaqida ro'yxatdan o'tkazuvchi organni uch kun ichida yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor etishi shart. Mazkur xabarnoma ushbu ommaviy axborot vositasi chiqarilishinining to'xtatib turilishi yoki tugatilishidan oldingi so'nggi chiqarishlaridan biriga joylashtirish kerak.
- 7.5. Ommaviy axborot vositasining chiqarilishini sud qaroriga ko'ra to'xtatib turish yoki tugatish ushbu ommaviy axborot vositasining olti oydan ziyod vaqt mobaynida chop etilmaganda shuningdek, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan tahririyatga nisbatan chiqarilgan ogoxlantirishga sabab bo'lgan qonun buzilish xolatlari takroriy yozma ogoxlantirishdan keyin bir oy muddat ichida bartaraf etilmaganda, sudning ommaviy axborot vositasini chiqarishni to'xtatib turish xaqidagi qarori bajarilmaganligi taqdirda amalga oshiriladi.

8. TAHRIRIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH YOKI TUGATISH TARTIBI

- 8.1. Tahririyat faoliyatini tutatish va qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunida belgilangan tartibla amalga oshiriladi.
- 8.2. Tahririyatning faoliyati muassisning qarori yoki sud qarori bilan to'xtatib turilishi yoki tugatilishi mumkin.
- 8.3. Tahririyat faoliyati tugatilgan taqdirda, barcha kreditorlar bilan to'liq xisob-kitob qilinganidan so'ng sof foyda muassisga tegishlidir.
- 8.4. Tahririyatni ro'yxatga oluvchi organ tomonidan berilgan guvohnoma bekor qilingandan so'ng ommaviy axborot vositalari reestridan chiqariladi va shu kundan boshlab tugatilgan, deb xisoblanadi.
- 8.5. Tahririyat tugatilishi yoki guvoxnomasi bekor qilingan taqdirda guvoxnomalarning asl nusxasi ro'yxatga oluvchi organga qaytarilishi shart.
- 8.6. Ommaviy axborot vositasining chiqarilishini to'xtatish to'g'risida muassis tomonidan qaror qabul qilingan taqdirda, taxririya muassisning ruxsati bilan xuddi shunday nomdagi ommaviy axborot vositasini belgilangan tartibda ta'sis etishga xaqlidir. Bunday xolda ommaviy axborot vositasini qayta ro'xatdan o'tkazish talab qilinadi.
- 8.7. Mazkur ommaviy axborot vositasi rentabelligi ta'minlanmagan taqdirda va veb-saytni rivojlantirish imkoniyatlari topilmagan xollarda yoxud ommaviy axborot vositasi faoliyati soxaga oid amaldagi qonunchilikga asosan sud qarori bilan to'xtatilsa muassis bilan kelishilgan xolda taxririya o'z faoliyatini to'xtatadi va davlat reestridan chiqarilgan kundan boshlab tugatilgan deb xisoblanadi.
- 8.8. Ommaviy axborot vositasining chiqarilishini qayta boshlash ro'yxatdan o'tkazuvchi organ aniqlagan qonun hujjatlari buzilishlari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar muassis va (yoki) tahririya tomonidan sudga taqdim etilganidan keyin sud qaroriga asosan amalga oshiriladi.
- 8.9. Tahririya rentabelligi ta'minlanmagan taqdirda va veb-saytni rivojlantirish imkoniyatlari topilmagan hollarda yoxud tahririya faoliyati qonunga asosan sud tomonidan to'xtatilsa, muassis qarori bilan o'z faoliyatini to'xtatadi.

9. NIZOMNI QABUL QILISH VA UNGA O'ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI

- 9.1. Mazkur tahririya Nizomi qonun hujjatlariga muvofiq qabul qilinadi va muassis tomonidan tasdiqlanadi.
- 9.2. Tahririya Nizomiga muassis qarori bilan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritiladi, muassis tomonidan tasdiqlanadi.
- 9.3. Sharoit tug'ilganida yoki ehtiyojga ko'ra, muassis qarori bilan amaldagi nizomga o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritilishi va yangi taxrirdagi Nizom qabul qilinishi mumkin. Muassis o'zgartirishlar kiritishda O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunning 20-moddasi talablariga qat'iy amal qilishi shart.

10. QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQ BOSHQA QONUNLAR

- 10.1. Tahririya saqlab turish sarf-harajatlari smetasi tahririya bosh muxarriri tomonidan ishlab chiqiladi va muassis tomonidan tasdiqlanadi.
- 10.2. Tahririya ijodiy faoliyati yuzasidan hisobot berishi belgilangan tartibda bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.
- 10.3. Mualliflarning maqolalari hamda xatlaridan foydalanayotganda ularni tahrir qilish, qisqartirish tahririya huquqi hisoblanib, ularning mazmunini saqlab qolishga harakat qilinadi.

10.4. Tahririyat bosh muharriri va xodimlari xizmat xamda tijorat siri bo`lgan axborotlarni sir saqlashga majburdirlar. Bunday sirlarni oshkor etganligi uchun ular qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

10.5. Mazkur Nizom ommaviy axborot vositasi davlat ro`yxatiga olingan kundan e`tiboran kuchga kiradi.

10.6. Mazkur Nizom 3 nusxada, o`zbek tilida tuzilgan bo`lib, ularning barchasi bir hil yuridik kuchga egadir.

Ushbu Nizom O`zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to`g`risida" gi Qonunining 11-moddasiga asosan muassisning 2022-yil «20» apreldagi qarori bilanqabul qilindi va tasdiqlandi.

**«Journal of Integrated Education and Research»
elektron jurnali bosh muharriri:**



M.J.Bekiyeva